

## SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING KAMCHILIKLARI TAHLILI

**Mamadaliyev Poziljon Mansurjon  
o'g'li**

**e-pochta** [poziljon97@icloud.com](mailto:poziljon97@icloud.com)

**Tel:** [+998994337077](tel:+998994337077)

### **Annotatsiya**

Kredit reyting agentliklarining milliy iqtisodiyot shuningdek jahon iqtisodiyotiga ta'siri oshdi. Biroq, kredit reyting agentliklari 1990-yillardagi va 2008-yilda boshlangan global moliyaviy inqirozlarni oldindan ko'ra bilib, o'z vaqtida to'g'ri baholay olmagan bu esa o'z navbatida kamchiliklarga yo'l quyilganligidan dalolat beradi.

**Kalit so'zlar:** kredit reyting agentliklari, reyting, baholash, obligatsiyalar, risk, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi,

Moliya bozorlarida 100 yildan ziyod vaqt mobaynida faoliyat yuritgan kredit reyting agentliklari reytingni baholash metodologiyasidagi kamchiliklar sabablar tanqidlarga uchragan. 2008-yilda yuzaga kelgan global moliyaviy inqiroz ushbu tanqidlarni yanada ko'payishiga olib keldi. Kredit reytingi yuqori bo'lgan kompaniyalar va davlatlarning obligatsiyalari yuqori riskli ekanligi aniq bo'lgan bo'lsa-da, kredit reyting agentliklari ularni yuqori reyting bilan baholagani reytinglarni ishonchliligi shubha ostiga olindi. Ushbu tanqidchilarni quyidagicha umumlashtirish mumkin;

- Kredit reyting agentliklarining baholash usuli yetarli darajada mukammal emas;
- Kredit reytingi bozorida raqobatning yo'qligi;
- Kredit reyting agentliklarning daromad modeli tufayli manfaatlar to'qnashuvi;
- Kredit reyting agentliklari inqirozni oldindan ko'ra bilmasligi va ularni hozirgi joriy holatini haddan yizod salbiy baholashi:

Reyting agentliklari mamlakat suveren kredit reytingini belgilashda ko'plab omillarni hisobga oladi. Kredit reyting agentliklari tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda ularning suveren kredit reytinglari asosida ko'plab iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar keltirilgan. 2015-yil Fatih Bahadir Haspolatning "Procedia Economics and Finance" jurnalida

“Moody's suveren kredit reytingini tahlil qilish: Reyting agentliklariga nisbatan tanqidlar hozir o'z kuchini yo'qotadimi?” (Analysis of Moody's Sovereign Credit Ratings: Criticisms Towards Rating Agencies Are Still Valid?) nomli maqolasida avvalgi tadqiqotlar va Moody's reyting metodologiyasi asosida, o'n uchta iqtisodiy va beshta korporativ boshqaruv ko'rsatkichlari va suveren kredit reytinglarini bashorat qilish uchun uchta model ishlatgan holda qaysi omillar reytinglarni belgilashda eng kata ega ekanliga va baholash metodologiyasidagi kamchiliklarni ko'rsatib bergan. Tadqiqot ishida aniqlikni ta'minlash uchun 69 ta mamlakatni 1996-yildan 2012-yilgacha bo'lgan yillik ma'lumotlardan foydalanilgan. Iqtisodiy ma'lumotlarni olish va e'lon qilish bilan reytinglar va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro korrelatsion bog'liqlik mavjud bo'lib, ushbu bo'g'liklik asosida bir yil keyingi suveren kredit reytinglarini taxmin qilish mumkin.

1-jadval

## Tadqiqotda foydalanilgan o'zgaruvchilar ro'yxati va ularning manbalari<sup>9</sup>

No	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar olingan manbalar	
1.	Korrupsiyani nazorat qilish	Butunjahon ko'rsatkichlari	boshqaruv
2.	Ovoz va javobgarlik	Butunjahon ko'rsatkichlari	boshqaruv
3.	Davlat boshqaruvining samaradorligi	Butunjahon ko'rsatkichlari	boshqaruv
4.	Qonun ustuvorligi	Butunjahon ko'rsatkichlari	boshqaruv
5.	Normativ sifat	Butunjahon ko'rsatkichlari	boshqaruv
6.	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha real YaIM	Jahon rivojlanish ko'rsatkichlari	
7.	Butun jahon YaIM da mamlakat YaIM(PPP) ulushi,(%)	XVFnig jahon istiqbollari	iqtisodiy

<sup>9</sup> Fatih Bahadir Haspolat “Analysis of Moody's Sovereign Credit Ratings: Criticisms Towards Rating Agencies Are Still Valid?”- Procedia Economics and Finance 30 ( 2015 ) 283 – 293

8. Inflyatsiya, (%)	XVFning jahon iqtisodiy istiqbollari
9. YaIMning o'sishi, (%)	Jahon rivojlanish ko'rsatkichlari
10. To'lov balansi, YaIMga nisbatan foiz	XVFning jahon iqtisodiy istiqbollari
11. Savdo ochiqligi, (%)	Jahon rivojlanish ko'rsatkichlari
12. Umumiy davlat qarzi (YaIMga nisbatan, %)	XVFning jahon iqtisodiy istiqbollari
13. So'nggi 4 yilda YaIMning o'rtacha o'sishi, (%)	Jahon rivojlanish ko'rsatkichlari /Jahon banki
14. Bir yillik o'sish prognozi, (%)	XVF ning jahon iqtisodiy istiqbollari
15. Valyuta kursining o'zgaruvchanligi	XVF xalqaro moliyaviy ko'rsatkichlari
16. Defoltlar tarixi	Moody's suveren standarti va tiklanish stavkalari

Korrupsiyani nazorat qilish, qonun ustivorligi, ovoz va javobgarlik, normativ sifat, shuningdek, davlat boshqaruvining samaradorligi ko'rsatkichlari bir biriga o'xshash va yaqin ko'rsatkichlar bo'lsada, Jahon banki va suveren reyting agentligi tomonidan alohida tahlil qilinadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM, inflyatsiya, to'lov balansi va xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar uchun savda jarayonlarini ochiqligi reytingni baholavchi asosiy iqtisodiy omillar hisoblanadi.

Kredit reyting agentliklari 20-asr oxirlarida sodir bo'lgan inqirozlarni oldindan to'g'ri baholayolmaganligi uchun tanqid qilindi. Kredit reyting agentliklariga nisbatan tanqidlar 2008-yildagi global moliyaviy ta'sirida natijasida yuzaga kelgan Evropadagi qarz inqirozlaridan keyin yanada kuchaymoqda.

Iqtisodiy o'sish jarayonini jadallashtirish uchun jahon iqtisodiyoti, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar katta miqdordagi tashqi moliyalashtirishga muhtoj ekan,

kredit reyting agentliklari va ularning kredit reytingi metodologiyalarini xolisona tahlil qilish juda muhimdir.

Moody's reyting agentligi metodologiyasi ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha YaIM, boshqaruv sifati, to'lov balansi, makroiqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari va o'sish prognozlarini, mamlakatning sanoatlashgan bo'lishi va zaxira valyutaga ega bo'lish suveren kredit reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida aniqlandi. Boshqa tarafdin; valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi, foizlar bo'yicha to'lovlar, qarzlarning hajmlari va ssudalarning paydo bo'lishi kredit reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar hisoblanadi.

Tahlil natijalari kredit reyting agentliklarini iqtisodiy inqirozni oldindan baholay olmaganligi va mavjud inqirozlarni keskin salbiy baholayotganligi uchun tanqid qilinmoqda. Gretsiyaning reyting tarixini tahlil qilib kredit reyting agentliklarini nima uchun tanqid qilinayotganligini tushinish mumkin. Gretsiya va boshqa ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarini tahlil qilib, Moody's har safar reyting qo'llanmalariga ko'ra reyting bermasligi kuzatilmoqda. Reytinglar mamlakatlarning haqiqiy iqtisodiy va ijtimoiy mavqei aks ettirmaydi. Moody's reytinglari va reyting mezonlari S&P va Fitch Ratings kabi boshqa yirik kredit reyting agentliklari bilan o'xshashligini hisobga olsak, kredit reyting agentliklari baholash metodologiyasi bir-biriga yaqin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1 Fatih Bahadir Haspolat "Analysis of Moody's Sovereign Credit Ratings: Criticisms Towards Rating Agencies Are Still Valid?"- Procedia Economics and Finance 30 ( 2015 ) 283 – 293